

GENDER IJTIMOIYLASHUVI NAZARIYALARI VA OILAVIY MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-492-497>

Raximova Robiya Abror qizi

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

Psixologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Ilmiy konsultant - Samatova Sevara G‘ayratovna

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada oila psixologiyasi doirasida gender stereotiplarining shakllanishi, ularning farzand tarbiyasi jarayoniga hamda jamiyat ijtimoiy ongining rivojlanishiga ta’siri psixologik va huquqiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda gender ijtimoiylashuvi nazariyalari, oilaviy munosabatlarning psixologik xususiyatlari hamda O‘zbekiston Respublikasida gender tengligini ta’minlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar o‘zaro bog‘liq holda o‘rganiladi. Empirik tadqiqot natijalari oilada mavjud gender stereotiplari bolalarning shaxsiy rivoji, o‘z-o‘zini baholashi va ijtimoiy faolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: oila psixologiyasi, gender stereotiplari, farzand tarbiyasi, ijtimoiy ong, gender tengligi, huquqiy asoslar.

Аннотация: В данной статье анализируется формирование гендерных стереотипов в рамках семейной психологии, их влияние на процесс воспитания детей и развитие общественного сознания в обществе на основе психолого-правовых подходов. Исследование рассматривает взаимосвязь теорий гендерной социализации, психологических характеристик семейных отношений и нормативно-правовых документов, направленных на обеспечение гендерного равенства в Республике Узбекистан. Результаты эмпирического исследования подтверждают, что гендерные стереотипы в семье напрямую влияют на личностное развитие, самооценку и социальную активность детей.

Ключевые слова: семейная психология, гендерные стереотипы, воспитание детей, общественное сознание, гендерное равенство, правовая база.

Abstract: This article analyzes the formation of gender stereotypes within the framework of family psychology, their impact on the process of raising children and the development of social consciousness in society based on psychological and legal approaches. The study examines the interrelationship of theories of gender socialization, psychological characteristics of family relations, and regulatory and legal documents aimed at ensuring gender equality in the Republic of Uzbekistan.

The results of the empirical study confirm that gender stereotypes in the family directly affect the personal development, self-esteem and social activity of children.

Keywords: family psychology, gender stereotypes, child rearing, social consciousness, gender equality, legal framework.

Bugungi globallashuv va ijtimoiy transformatsiyalar sharoitida jamiyatning barqaror rivojlanishi ko‘p jihatdan oilada shakllanadigan qadriyatlar tizimiga bog‘liq. Oila shaxsning birlamchi ijtimoiylashuv makoni sifatida uning psixologik rivoji, ijtimoiy xulq-atvori va dunyoqarashini belgilab beradi. Aynan oilada bola ilk

bor jinsiy identifikatsiyasini anglaydi, erkak va ayolga xos bo‘lgan ijtimoiy rollar, me‘yorlar hamda kutishlar bilan tanishadi.

Gender stereotiplari oilaviy tarbiya jarayonida ongli yoki ongsiz tarzda avloddan avlodga uzatiladi. Bu stereotiplar ko‘pincha an‘analar, urf-odatlar va madaniy qarashlar bilan mustahkamlangan bo‘lib, farzandlarning shaxs sifatida to‘liq rivojlanishiga ma‘lum darajada cheklovlar qo‘yadi. Shu bilan birga, zamonaviy huquqiy tizim gender tengligini ta‘minlashni jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida e‘tirof etadi.

Mazkur holat oila psixologiyasi va huquqiy normalar o‘rtasida muayyan ziddiyat mavjudligini ko‘rsatadi. Shu sababli, gender stereotiplarining farzand tarbiyasi va ijtimoiy ong shakllanishiga ta‘sirini kompleks — psixologik va huquqiy yondashuv asosida tadqiq etish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Gender stereotiplari — jamiyatda erkaklar va ayollar uchun “mos” deb hisoblangan xulq-atvor, kasb, hissiy holat va ijtimoiy rollar haqidagi barqaror ijtimoiy tasavvurlardir. Psixologiya fanida gender stereotiplari shaxs rivojiga ta‘sir etuvchi muhim ijtimoiy-psixologik omil sifatida qoraladi.

Dunyoga mashhur kanadalik – amerikalik psixolog, zamonaviy psixologiyaning eng nufuzli olimlaridan biri – Albert Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, bola genderga oid xatti-harakatlarni kuzatish, taqlid qilish va ijtimoiy rag‘bat orqali o‘zlashtiradi. Ota-onaning munosabati, oiladagi rollar taqsimoti va kundalik muloqot shakllari - gender stereotiplarining shakllanishida asosiy manba hisoblanadi.

Amerikalik psixolog, gender psixologiyasi asoschilaridan biri – Sadra Bem tomonidan ishlab chiqilgan gender sxema nazariyasida esa bola ongida jinsga oid kognitiv sxemalar shakllanishi ta‘kidlanadi. Ushbu sxemalar bolaning o‘zini anglashiga, qiziqishlariga va kelajakdagi hayotiy tanlovlariga ta‘sir ko‘rsatadi.

Oila psixologiyasi nuqtai nazaridan oila shaxs rivojining markaziy muhiti hisoblanadi. Oila a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlar, emotsional iqlim va tarbiya uslublari - bolada genderga oid tasavvurlarni mustahkamlaydi. Masalan, oilada uy yumushlarining faqat ayollar zimmasiga yuklanishi yoki qaror qabul qilishda erkaklarning ustunligi – gender tengsizligi haqidagi qarashlarni kuchaytiradi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, gender tengligi tamoyillariga amal qilinadigan oilalarda – bolalarda mustaqil fikrlash, o‘z fikrini erkin ifodalash va ijtimoiy mas‘uliyat hissi yuqori bo‘ladi.

Gender stereotiplari - farzand tarbiyasida emotsional, kognitiv va xulqiy rivojlanishga ta‘sir ko‘rsatadi. O‘g‘il bolalardan hissiyotlarni yashirish talab etilishi – emotsional zo‘riqishga olib kelishi mumkin. Qiz bolalarda esa passivlik va o‘ziga ishonchsizlik holatlari shakllanishi ehtimoli yuqori bo‘ladi. Bu holatni psixologik jihatdan tahlil qilib ko‘rsak:

“O‘g‘il bola kuchli bo‘lishi, hissiyotlarini ko‘rsatmasligi kerak” – stereotipi natijasida: emotsional zo‘riqish, stressni ichkariga yo‘naltirish, ruhiy holatni

boshqara olmaslik yuzaga keladi. Bu jarayon psixologik jihatdan - depressiya, xavotir, frustratsiya yig'ilishiga olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy jihatdan esa o'zi va boshqalar bilan sog'lom aloqalarni rivojlantira olmasligi, konfliktlarni hal qilishda qiyinchiliklarga duch kelish oqibatiga yetadi.

Oilaviy va kasbiy hayotda, afsusi, hissiyotlarni ifodalash qobiliyati past bo'lgani uchun, kelajakda oila ichida ham, ish joyida ham yetarlicha muloqot qila olmasligi ehtimoli yuqori.

“Qizlar muloyim, o'zini kamroq namoyon qilishi kerak” – stereotipi natijasida: ijtimoiy faoliyatda cheklanish, o'z imkoniyatlarini past baholash, yetakchilik va tashabbuskorlikning yetishmasligi yuzaga keladi. Bu holat kasbiy rivojlanishda: karera imkoniyatlarini cheklash, yangi rollarga qo'rquv bilan yondashishni shakllantiradi.

Ijtimoiy hayotda: jamiyatda o'zini ifodalash, ovozini yetkazish imkoniyati cheklangan bo'ladi. Oilaviy hayotda: qaror qabul qilishda passiv bo'lish, shaxsiy huquq va manfaatlarini himoya qila olmaydi.

Oilada emotsional yetishmovchilik - o'g'il bolalarning oila ichida stressli munosabatlar qurishiga, jamiyatda bolalar bilan muloqotda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Qiz bolalar: o'ziga ishonchsizlik oilada va jamiyatda faol rol o'ynay olmasligi, o'z huquqlari va manfaatlarini himoya qila olmasligi bilan namoyon bo'ladi.

Shu bilan, stereotiplar asosidagi tarbiya nafaqat shaxsning o'zini rivojlantirishini cheklaydi, balki kelajakda jamiyatda tenglik va ijtimoiy barqarorlikni kamaytiradi.

Bu holatlarni kamaytirishning eng samarali yo'li – gender tengligiga asoslangan tarbiya, hissiyotlarni ifodalash va faol qatnashish imkoniyatlarini yaratish.

Psixologik tadqiqotlar: gender tengligiga asoslangan tarbiya – bolalarda ijtimoiy moslashuvchanlik va stressga chidamlilikni rivojlantirishini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida erkaklar va ayollarning teng huquqliligi mustahkamlangan.

Oilada kodeksining 63-moddasiga muvofiq, ota-ona farzandni tarbiyalashda uning shaxsiy rivoji va manfaatlarini ta'minlashi shart. Shuningdek, “Erkaklar va ayollar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi Qonun oilaviy munosabatlarda gender kamsitilishining oldini olishga qaratilgan.

Gender stereotiplarining farzand tarbiyasiga ta'sirini o'rganish maqsadida tadqiqot tashkil etildi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — oilada shakllangan gender stereotiplarining farzand tarbiyasi jarayoniga, xususan, bolalarning psixologik rivoji va ijtimoiy ong shakllanishiga ta'sirini empirik jihatdan aniqlashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

A) oilalarda mavjud gender stereotiplarining darajasini aniqlash;

B) ota-onalarning tarbiyaviy yondashuvlarida gender omilining namoyon bo‘lishini tahlil qilish;

C) gender stereotiplari va farzandlarning o‘z-o‘zini baholashi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash;

D) tadqiqot natijalarini amaldagi huquqiy normalar bilan qiyosiy tahlil qilish.

Tadqiqot quyidagi ilmiy gipotezalarga asoslandi:

1. Oilada gender stereotiplari yuqori bo‘lgan hollarda farzandlarning psixologik moslashuv darajasi past bo‘ladi.

2. Gender tengligiga asoslangan tarbiya modeli bolalarda yuqori ijtimoiy faollik va o‘z-o‘zini baholashni shakllantiradi.

3. Huquqiy ong darajasi yuqori bo‘lgan ota-onalarda gender stereotiplari nisbatan kamroq namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot sotsiopsixologik empirik tadqiqot bo‘lib, unda miqdoriy va sifat tahlil usullari uyg‘unlashtirildi.

Tadqiqotda jami 120 nafar respondent ishtirok etdi:

60 nafar ota-ona (30 nafar erkak, 30 nafar ayol);

60 nafar 14–18 yoshdagi o‘smirlar.

Respondentlar shahar va qishloq hududlaridan tanlab olindi. Bu hududiy farqlar gender stereotiplarining ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi.

Tanlanma tasodifiy-klaster usulida shakllantirildi va tadqiqot etik tamoyillarga to‘liq rioya etilgan holda o‘tkazildi.

Tadqiqotda quyidagi psixodiagnostik metodlar qo‘llanildi:

1. Bemning gender rollari so‘rovnomasi (BSRI)

Mazkur metodika respondentlarda erkaklik, ayollik va androgenlik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot sharoitiga moslashtirilgan variantdan foydalanildi.

2. Ota-onalik tarbiya uslublari so‘rovnomasi

Ushbu metodika ota-onalarning avtoritar, demokratik va liberal tarbiya uslublarini aniqlash imkonini berdi.

3. Rosenbergning o‘z-o‘zini baholash shkalasi

Mazkur test o‘smirlarning o‘ziga bo‘lgan munosabatini va ichki ishonch darajasini baholash uchun qo‘llanildi.

4. Mualliflik so‘rovnomasi

So‘rovnoma ota-onalarning gender tengligi, huquqiy bilimlar va farzand tarbiyasiga oid qarashlarini aniqlashga qaratildi.

5. Yarim strukturalangan suhbat

Suhbatlar orqali ota-onalarning gender stereotiplari qanday asoslar bilan shakllanganligi chuqurroq tahlil qilindi.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

Diagnostic bosqich — so‘rovnomalar va testlar o‘tkazildi;

Tahliliy bosqich — olingan ma’lumotlar statistik jihatdan qayta ishlandi;

Umumlashtiruvchi bosqich — natijalar psixologik va huquqiy nuqtai nazardan talqin qilindi.

Tadqiqot davomida respondentlarning shaxsiy ma'lumotlari maxfiyligi ta'minlandi. Ishtirokchilar tadqiqotda ixtiyoriy asosda qatnashdi.

Olingan empirik ma'lumotlar quyidagi usullar orqali tahlil qilindi:

deskriptiv statistika;

korrelyatsion tahlil (Pearson koeffitsienti);

taqqoslama tahlil (Student t-testi).

Natijalar ishonchliligi $p < 0,05$ darajasida baholandi.

Empirik tadqiqot natijalariga ko'ra, respondent ota-onalarning 48 foizida gender stereotiplari yuqori darajada, 34 foizida o'rta darajada va 18 foizida past darajada namoyon bo'ldi. Yuqori darajadagi stereotiplar asosan oiladagi rollar taqsimoti, kasb tanlashga bo'lgan munosabat va farzandlarning xulq-atvoriga qo'yiladigan talablar orqali ifodalandi.

Shahar va qishloq oilalari o'rtasidagi taqqoslama tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, qishloq hududlarida an'anaviy gender stereotiplari nisbatan kuchliroq namoyon bo'lgan.

Korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, gender stereotiplari darajasi bilan farzandlarning o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlari o'rtasida salbiy bog'liqlik aniqlandi ($r = -0,46$; $p < 0,01$). Bu holat gender stereotiplari kuchli bo'lgan oilalarda bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchi pastroq ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, demokratik tarbiya uslubi ustuvor bo'lgan oilalarda bolalarning ijtimoiy moslashuvchanligi va emotsional barqarorligi yuqori ekanligi kuzatildi.

Olingan empirik natijalar psixologik nazariyalar bilan mos keladi. Bandura va Bem nazariyalari nuqtai nazaridan qaralganda, oiladagi gender stereotiplari bolalarda cheklangan ijtimoiy rollarni ichkilashtirishga olib keladi.

Huquqiy jihatdan esa, mazkur holat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasi hamda Oila kodeksining 63-moddasida belgilangan tenglik va farzand manfaatlari tamoyillariga qisman zid keladi. Bu holat huquqiy me'yorlarning oilaviy ongda yetarli darajada singdirilmaganligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalariga asosan quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

a) ota-onalar uchun gender tengligi bo'yicha psixologik treninglar tashkil etish;

b) maktab va mahalla hamkorligida oilaviy tarbiya madaniyatini oshirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqish;

c) OAV orqali gender stereotiplarini bartaraf etishga yo'naltirilgan ma'rifiy materiallarni keng targ'ib qilish;

d) huquqiy savodxonlikni oshirish orqali gender tengligi tamoyillarini oilaviy ongga singdirish.

Mazkur maqolada oila psixologiyasi doirasida gender stereotiplarining farzand tarbiyasi va ijtimoiy ong shakllanishiga ta'siri psixologik va huquqiy yondashuvlar asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari: oilada mavjud an'anaviy gender

stereotiplari – bolalarning shaxs sifatida to‘liq rivojlanishiga ma’lum darajada salbiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi.

Shuningdek, gender tengligiga asoslangan tarbiya modeli – bolalarda ijtimoiy faollik, psixologik barqarorlik va huquqiy ongni rivojlantirishda muhim omil ekanligi aniqlandi.

Gender tengligiga asoslangan tarbiya modeli – bu bola tarbiyasida qiz va o‘g‘il bolalarga teng imkoniyatlar yaratish, ularni jinsiy stereotiplardan xoli holda shakllantirishga qaratilgan yondashuvdir.

Uning asosiy tamoyillari:

- a) Bolalarga jinsiga qarab farqlashsiz bilim va ko‘nikmalarni berish.
- b) Uy va maktabdagi vazifalarni, rollarni teng taqsimlash.
- c) Ijtimoiy stereotiplardan xoli muhit yaratish.
- d) Har bir bolaning individual qobiliyatini rivojlantirishga urg‘u berish.

Gender tengligiga asoslangan tarbiya – bolalarga jinsiy stereotiplarga bog‘lanmagan rol va faoliyatlarni sinab ko‘rishga imkon beradi. Masalan, qiz bolalar ham sportga, o‘g‘il bolalar ham ijodiy mashg‘ulotlarga jalb qilinadi. Bu esa ularning ijtimoiy faollik va tashabbuskorligini oshiradi. Bolalar bir-biri bilan hamkorlik qilish, fikr almashish va muammolarni birgalikda hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Teng tarbiya o‘z-o‘zini qadrini oshiradi: bolalar o‘zini qadrlash, o‘z fikrini ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Stress va ijtimoiy bosim kamayadi, chunki bolalar jinsiy stereotiplarga mos kelmaydigan qiziqishlari yoki qobiliyatlari uchun tanqid qilinmaydi. Natijada, bola psixologik jihatdan barqaror, o‘ziga ishonchi yuqori shaxs sifatida rivojlanadi.

Gender tengligi tarbiyasi orqali bolalar o‘z huquqlari va boshqalar huquqlarini hurmat qilishni o‘rganadi hamda bolalar jinsiy kamsitishga qarshi turish, adolatni qadrlash va tenglik tamoyillarini amaliyotda qo‘llashga o‘rgatiladi, Bu esa kelajakda ularni fuqarolik ongiga ega, ijtimoiy javobgarlikni anglashi kuchli shaxs qilib tarbiyalaydi.

Bu model nafaqat individual rivojlanish, balki jamiyatda tenglik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda ham muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi.
3. “Erkaklar va ayollar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun.
4. Bandura A. Social Learning Theory. – New Jersey, 1977.
5. Bem S. Gender Schema Theory. – Stanford University Press, 1981.
6. Eagly A.H. Sex Differences in Social Behavior. – New York, 2018.
7. Andreeva G.M. Ijtimoiy psixologiya. – Moskva, 2019.